QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING
# QARORI

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko'chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2022 - yil 4 - mart 75-4-58-Q/22 Qamashi tuman hokimligi

## Oltinchi chaqiriq Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining qirq sakkizinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasiga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Oltinchi chaqiriq Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining qirq sakkizinchi sessiyasi 2022-yil 04-mart kuni soat 16 00 ga chaqirilsin.

2. Sessiya kun tarkibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

a) Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 11-yanvardagi VI-45-1-4-58-K/22-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (Qamashi tumani soliq inspeksiyasi boshrig‘ining axboroti);

b) Qamashi tumanida xonadonlari soni mingdan ko‘p bo‘lgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini bo‘lish to‘g‘risida (tuman hokimining o‘rinbosari-Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Sh.Bekmurzayevning axboroti);

d) Qamashi tumanida yangi tashkil etilgan aholi punktining tarkibiy qismiga nom berish to‘g‘risida (Qamashi tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Ro‘ziyevaning axboroti).

3. Sessiya ishiga Qamashi tumani Kengashi deputatlari, tuman hokimligi apparat xodimlari, muassasa, korxona va jamoat tashkilotlari rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etilsin.

**Tuman hokimi** **B.Tog‘ayev**